XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMAN KENGASHI

Q A R O R I

150200, Oltiariq t., Mustaqillik k., 90-uy, tel: (73) 432-06-93

2022 - yil 9 - dekabr VI-53-178-11-151-K/22 Oltiariq tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “ Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan, Oltiariq tumanidagi qabristonlarga nom berish va davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga, viloyat hokimining 2020 yil 14 noyabrdagi 304-qarorlarini ijrosini ta’minlash maqsadida tumanda amaldagi qonun talablariga zid bo‘lgan holatlarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar belgilanib amalga oshirilmoqda, ya’ni tumandagi mavjud **qabristonlarni** Kadastr agentligining Oltiariq tuman bo‘limi bilan tahliliy o‘rganilmoqda. **Qabristonlar** nomini milliy g‘oyamiz va mafkuramiz talablari asosida qayta nomlash, jumladan joylarning qadimiy nomlarini tiklash yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi. Mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan geografik ob’yektlarni nomlash to‘g‘risida takliflar bildirildi. Yuqoridagilarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli hamda Oltiariq tuman hokimi maslahatchisi M.Axmedovning 1658-sonli xati va O‘zbekiston Respublikasi ”Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qaroriga asosan Oltiariq tumanidagi **qabristonlar**ga nom berilishi borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona viloyati Oltiariq tuman bo‘yicha nomi Davlat reyestri bazasida mavjud bo‘lmagan **qabriston**lar 1- ilovaga asosan Davlat reyestriga kiritilsin.

3. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya bo‘yicha doimiy komissiya raisi (U.Qodirova) hamda tuman hokimining maslahatchisi M.Axmedov zimmasiga yuklatilsin.

4. Qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Oltiariq tumani kengashi raisi **Sh.Turdaliyev**

Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashining
2022 yil 9 dekabrdagi
VI-53-178-11-151-K/22-son qaroriga
1-ilova

Farg’ona viloyati Oltiariq tumanidagi qabristonlar to’g’risida

MA’LUMOT

№	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy ilmiy asosi
1	“Zilxa” qabristoni	Oltiariq tumani Zilxa MFY, Atoiy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:03:02:0032)***	Zilxa qabristoni Oltiariq tumani Zilxa qishlog’ida joylashgan. Zilxa nomini berishdan sabab qabriston Zilxa qishlog’ida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritilgan. 2019 yil may oyida faoliyati to’xtatilgan.
2	“Juma ota” qabristoni	Oltiariq tumani Tegirmonboshi MFY, Atoiy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:03:02:0033)***	2019 yil aprel oyida Oltiariq tumani Tegirmonboshi MFY xududidagi qir adirlikdan 5-gektar yer maydoni ajratilib, “Juma ota” qabristoni tashkil etilgan. Xududda yashovchi tadbirkor T.Topiev va uning otasi Jumavoy ota Oltiariq tumani va o’z qishlog’iga qilgan mehnatlari uchun marhum Juma otaning nomini abadiylashtirish maqsadida qabriston nomini “Juma ota” deb nom qo’yilgan.
3	“Oq ota mozori” qabristoni	Oltiariq tumani Ustoz MFY, Tabassum ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:01:04:0081)***	Oq ota mozori Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan bo’lib, ushbu mozorda ikkita ziyoratgoh mavjud. Bular Hazrati Bobo Qambar va Bobo Ahtam mozorlaridir. Oq ota mozoridagi ikkinchi ziyorathog Bobo Ahtam mozoridir. Ushbu ziyoratgohni ikkinchi nomi Oq ota mozoridir. Ushbu mozor o’zida masjid va mozorni mujassam qilib, gumbazli shaklda qurilgan. Bu mozorni sahoba Bobo Ahtamning qadamjoyi degan taxminlar ham bor. Mozor 1965-1968 yillarda qayta ta’mirlangan. “Miri Ahtam qissasi”da Bobo Ahtam Hazrati Muhammad alayhissalomning qarindoshi sahobalaridan biri ekanligi aytilgan. ***(1-Amiri Ahtam qissasi. Ibrohim Adham qissasi. Toshkent: yozuvchi, 1991, 96-bet. 2-Bo’riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent :O’zbekiston, 1997, 151-bet)***

4	“Oqbo’yra” qabristoni	Oltiariq tumani Oqbo’yra MFY, Oqbo’yra ko’chasi, ***(kadastr raqami : 15:07:05:04:02:0079)***	Oqbo’yra qabristoni Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1824 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. SHu o’rinda qishloq nomi haqida. Tadqiqotchilar “Oq bo’yra” nomidagi bo’yra so’zini buvra, bug’ra, bura, “tuya, oq tuya” so’zi bilan bog’laydilar. Bu haqda H.Xasanov: “Oq bo’yra” deb yanglish yoziladi. Aslida buvra-tuya so’ziga bog’liq, tuyalik joy ma’nosida. Oq va qora tuya kamchil bo’lganidan uni muqaddaslashtirib qo’yilgan” degan fikrni keltirgan. ***(1-Xasanov H. Ko’rsatilgan asar, 49-bet. 2-Do’simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug’ati. Toshkent : O’qituvchi, 1977, 115-bet)***
5	“Qaxramon” qabristoni	Oltiariq tumani Qaxramon MFY, Oqbo’yra ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:04:01:0017)***	Qaxramon qabristoni Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’ida joylashgan bo’lib, 2008 yili tuman hokimining tegishli qaroriga asosan yer maydoni ajratilib, shu yildan boshlab o’z faoliyatini boshlagan. Qaxramon nomini berishdan sabab qabriston Qaxramon mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
6	“Povulg’on” qabristoni	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Toshobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:02:03:0050)***	Povulg’on qabriston Oltiariq tumani Povulg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1953 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Qishloqning nomi “Pok bo’lg’on” deb atalib, keyinchalik Povulg’on deb yuritilgan deyishadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra Povulg’on so’zi asli mo’g’il tiliga xos paulgan “qo’nish joyi, o’rda, manzil so’zi asosida vujudga kelgan. ***(Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. Toshkent: O’zbekiston. 1994. 711-bet.)***
7	“Umarali qori ota” qabristoni	Oltiariq tumani Qapchug’ay MFY, Porloq ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:02:0035)***	Umarali qori ota qabristoni Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan. Qabriston 1974 yilda faoliyat yuritishni boshlagan. Qabristonga “Umarali qori ota” nomi berilishiga sabab Oltiariq tumani Poloson qishlog’ida yashovchi To’raqulov Imarali ismli shaxs xalqqa islomiy ilmlarni berib kelgan. Umarali qori ota xalq orasida Oq do’ppi eshon nomi bilan mashhur bo’lgan Muhrali eshonning muridlaridan biri bo’lgan. Umarali qori ota 1990 yilda vafot etgan. Hozirgi kunda qabriston faoliyat yurgazib kelmoqda. Poloson, Qapchug’ay va Tinchlik qishloqlarida vafot etgan kishilar dafn etiladi.
8	“O’rinboy ota” qabristoni	Oltiariq tumani SHarq MFY, Qapchug’ay ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:03:0200)***	“O’rinboy ota” qabriston Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan bo’lib, “Lo’li” millatiga mansub fuqarolar qabristoni hisoblanadi. Qapchug’ay qishlog’ining yuqori qismida joylashgan. “O’rinboy ota” nomi berilishiga sabab lo’li millatiga mansub fuqarolarning yo’l boshchisi, oqsoqoli bo’lib, O’rinboy ota o’z davrining qasidashunosi, xunarmandchilik sohasini ustasi bo’lgan. SHu yerda yashab o’tgan va shu qabristonga birinchilardan bo’lib dafn etilgan. O’rinboy ota taxminan 1954 yili vafot etgan.

9	“Rusiyzabonlar” qabristoni	Oltiariq tumani SHarq MFY, Polosonobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:01:0080)***	Rusiyzabonlar qabristoni Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1969 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. 1906 yilda Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi qurilganidan so’ng Rossiya va boshqa davlatlardan rus, tatar, koreys millatiga mansub ishchilar ishlash uchun zavodga olib kelingan. Ular ishlari uchun sharoitlar yaratilib, doimiy yashashga uylar qurib berilgan. Vafot etganlarni shu qabristonga dafn qilishgan.
10	“SHahidlar” qabristoni **(Laxachi)**	Oltiariq tumani SHarq MFY, Obodturmush ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:03:0201)***	SHahid mozori Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’idagi Laxachi qabristonida joylashgan. 1960 yildan faoliyat yurgazib kelmoqda. Odamlarning aytishicha, qurbonboy Xalfa buva ismli zot Qashg’arga ketayotganida kechasi tushiga azizlardan biri kirib “Siz Laxachida tug’ ko’tarmog’ingiz lozim” debdi. Xalfa bkva ertasi kuniyoq bbu yerda tug’ ko’tarib, keyinchalik shu yerda yashab qolibdi. Ko’p o’tmay Xalfa buvaning uyiga kechasi yetti kishidan iborat o’g’rilar bostirib kirishib, uyda bo’lgan barchasini xatto beshikda bo’lgan go’dakni ham o’ldirib ketishibdi. SHu tariqa avliyo Xalfa buva xonadonidan olti jon o’sha kuni qotillar qo’lida shahid bo’lgan ekan.
11	“Matqosim qori” qabristoni	Oltiariq tumani Oq oltin MFY, Oltiariq ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:01:02:0044)***	Matqosim qori qabristoni Oltiariq tumani Oltiariq qishlog’ida joylashgan. Matqosim qorining asl ismi Fayzimatov Muhammad Qosim bo’lib, islom dinidan ta’lim bergan. Islom mavqeida shayx, qori darajasini olgan. Mahalliy aholi Matqosim qori deyishgan. Matqosim qori vafot etganidan so’ng shu qabristonga dafn etilgan va aholining taklifi asosida qabriston nomini “Matqosim qori” deb qo’yishgan. Qabriston 1986 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda.
12	“Zokir ota” qabristoni	Oltiariq tumani Yuksalish MFY, Yuksalish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:05:0024)***	Zokir ota qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan. Taxminan 1880 yillarda faoliyat boshlagan. Mahalliy aholi vakillarining aytishicha, shu qishloqning eng boy kishisi bo’lib, uning farzandlari bo’lmaganligi uchun ham merosxo’rlari yo’q bo’lgan. Zokir ota o’ziga tegishli bo’lgan yerlaridan birini ko’rsatib, “Agar vafot etsa shu joyga dafn qilishlarini aytib, qolgan yer maydonini qabriston qilishlarini” vasiyat qilgan ekan. Zokir ota vafot etganidan so’ng vasiyati bo’yicha aytilgan joyga dafn qilishgan. Qolgan yer maydoni hozirgi kunga qadarli qabriston sifatida foydalanilib kelinmoqda.
13	“Abduholiq ota” qabristoni	Oltiariq tumani Navbaxor MFY, ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:05:0017)***	Abduholiq ota qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1962 yildan buyon faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Abduholiq ota deb nom qo’yilishiga birinchi bo’lib qabristonga shu kishi dafn etilganligi, Abduholiq ota qishloq uchun juda ko’p ishlar qilganligi, qishloqni obodonlashtirish ishlariga o’z xissasini qo’shganligi sabab bo’lgan.

14	“Oxunbuvo” qabristoni **(Oxund Dada)**	Oltiariq tumani Mustaqillik MFY, Oxunbuvo ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:07:04:0073)***	Oxund Dada mozori Oltiariq tumani Jo’rak qishlog’ida joylashgan. Oxund Dada aziz-avliyolardan bo’lib, taxminan XVIII asrda yashab o’tgan. Uning avliyoligidan bir dalil, shuki o’limidan oldin Hazrati Oxund o’z shogirdlariga “Men olamdan o’tsam, meni qishloq chetidagi qirga dafn etinglar” debdi. SHunda shogirdlari: “Biz sizni qirga dafn etsak qabringiz chetga chiqib ketgan bo’ladi”, deb hayron bo’libdilar. SHunda Hazrati Oxund: “Hozir chekkada bo’lsak ham vaqti kelib qishloqning o’rtasida bo’lamiz” deb javob bergan ekan. CHindan ham hozirgi vaqtda Hazrat Oxund Dada mozori qishloqning o’rtasida joylashgan. Mozor oldida 1780 yilda Niyozqul Imom Homid Oxund tomonidan qurilgan masjid ham bo’lib, ushbu masjid keyinchalik buzib tashlangan. Hozirda Oxund Dada nomi shu yerda yashovchi aholi tomonidan Oxun buvo deb ham atalib kelinadi.
15	“Jahongirxon” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Do’stiobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0075)***	Jahongir eshon qabristoni Oltiariq tumani Eski Arab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1870 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Ushbu mozorda Jahongir eshon va uning otasi Amirshoh eshon dafn etilgan. Jahongir eshon bundan uch asr muqaddam yashab o’tgan. Jahongir eshon balog’atga yoshiga yetgach, tariqat yo’lini tanlab, Samarqand boradi va Hazrati Jahongir Samarqanda bir necha vaqt turgach, piri komildan irshodni olib, Oltiariqqa qaytib kelib, umrini oxirigacha eshonlik maqomida turib, tariqatdan dars berib, avliyolik darajasiga erishgan. ***(Naqshbandiya tariqatiga oid qo’l yozmalar fihristi. Toshkent: Movarounnahr, 1993, 118-bet)***
16	“Yuqori mahalla” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0074)***	Yuqori mahalla qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, o’z faoliyatini 1999 yilda boshlagan. Qabriston tashkil etish bo’yicha tuman hokimining tegishgli qarori qabul qilingan. Yuqori mahalla qabristoniga bunday nom berilishiga sabab asosan qishloqning yuqorida qismida yashovchi fuqarolar dafn etilganligi munosabati bilan “Yuqori mahalla” nomi berilgan. Qabriston o’z faoliyatini yurgazib kelmoqda.
17	“Qo’rg’oncha” qabristoni	Oltiariq tumani Qo’rg’oncha MFY, Adolat yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:05:0052)***	Qo’rg’oncha qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Qo’rg’oncha nomini berishdan sabab qabriston Qo’rg’oncha mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.

18	“Valixonto’ra” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0076)***	Valixonto’ra qabristoni 1950 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Valixonto’ra Sayyid Abdullaxon xojaning Rahmatullohxon xoja ismli o’g’li avlodidan bo’lib, 1864-1950 yillarda yashab o’tgan. Oltiariq tumanining Eskiarab qishlog’iga dafn etilgan. Hozirda saqlanayotgan shajarada, jumladan, shunday deyiladi: “Uch birodarlari Xoja Karomatullohdurlar. Alarning farzandlari Muhammad Odil Podshohdurlar, Sayyid Ofoqxojamga domod bo’ladurlar. Bularning farzandi arjumandlari Eshon Sayyid Abdulloh xojam qutb ul aqtob Sayyid avliyodurlar. Alarning farzandi arjumandlari Muhammad Sayyidxon xojam. Bu shajarai sharif Muhammad Sayyid Xojamni shajaralaridur” deyilgan. Valixonto’ra vafot etgach, halq uni shu qishloqqa dafn etishlarini farzandlaridan iltimos qilganlar.
19	“Muxammad Yusuf Eshon” qabristoni **(Mamayusuf Eshon)**	Oltiariq tumani Jarqo’rg’on MFY, ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:06:0073)***	Qabriston 1822 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Farg’ona-Qo’qon yo’lida joylashgan bo’lib, Mamayusuf Hazrati Oxundning otasidir. Aytishlaricha, Mamayusuf eshon hazratlari vafotidan oldin: “Men dunyodan o’tsam adirga dafn etinglar” deb vasiyat qilgan ekan. SHogirdlari bu vasiyatini eshitib hayron bo’lishib turgan payt Mamayusuf eshon hazratlari: “Vaqti kelib men yotgan joydan sal narida katta yo’l o’tadi. Odamlar qabrimni ko’rib, doim duo qilib o’tadilar”, deb bashorat qilgan ekan. CHindan ham hozirda Mamayusuf eshon hazratlari mozori oldidan katta yo’l o’tgan bo’lib, yo’lovchilar duo qilib o’tadilar.
20	“Sarimsoq xo’ja avliyo” qabristoni	Oltiariq tumani Qo’rg’oncha MFY, Adolat yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:05:0112)***	“Sarimsoq xo’ja avliyo” qabriston (Xonaqoh aziz buva mozori). Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, kelib chiqish tarixi 17 asrdan boshlanadi. Hozirda mahalliy aholi tomonidan Xonaqoh aziz buva mozori, Sarimsoq xo’ja avliyo nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Aytishlaricha, kunlardan bir kuni dalada dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lgan dexqonlar oldiga bir mo’ysafid chol kelib: “SHu yerga bir xonaqox ko’tarsangizlar soz bo’lar edi” deb, bu ishning uddasidan kim chiqa olishini so’rabdi. Dehqonlar bu ishni faqat Avliyo buva qilishi mumkinligini aytishibdi va mo’ysafidning oldiga Avliyo buvani olib kelishibdi. Haligi mo’ysafid chol Avliyo buvaga “Siz bu yerga xonaqoh qurdiring. Keyinchalik shu yerga sizni dafn qilishadi. Siz shu joyning tarbiyat qiluvchi valiylaridan bo’lasiz”, deb duo qilib, ko’zdan g’oyib bo’libdi. Barcha bu Hazrati Xizr ekanligini bilishibdi. SHundan keyin Avliyo buva xonaqoh quribdi va shu yerga dafn qilishibdi.
21	“CHordara” qabristoni	Oltiariq tumani CHordara MFY, Yangiobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:04:01:0022)***	CHordara qabristoni Oltiariq tumani Yangiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. CHordara nomini berishdan sabab qabriston CHordara mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi. CHordara “To’rt tomoni dara” degan ma’noni anglatadi.

22	“Yangiarab” qabristoni	Oltiariq tumani Bunyodkor MFY, Ipakchi ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:04:02:0069)***	Yangiarab qabristoni Oltiariq tumani Yangiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Yangiarab nomini berishdan sabab qabriston Yangiarab qishlog’i xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
23	“Qoziyon” qabristoni	Oltiariq tumani SHalola MFY, Yu.Xidirov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:01:0078)***	Qoziyon qabristoni Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan. Qabriston 1970-1975 yillarda faoliyat boshlagan. Qoziyon deb atalishiga sabab, qozilik qiladigan odamlar ko’p bo’lgan. “Yon”-so’zi tojikchada “lar” degan ma’nosi anglatgani uchun “Qozilar” deb atalgan bo’lishi mumkin. Hozirda qabriston faoliyatini yurgazib kelmoqda.
24	“Do’sti Xudo Pirim” qabristoni	Oltiariq tumani Zilol MFY, Paxtaobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:03:0039)***	Do’sti Xudo mozori Oltiariq tumanining Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan. Do’sti Xudo hazratlarining asl ismi Atoulloh bo’lib, Maschoh yurtidan bo’lgan. Do’sti Xudo Temuriylar va undan keyingi davrlarda Farg’ona vodiysining shimoliy xududidagi Kosonshahrida tug’ilib, keyinchalik XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmida Temuriylar va SHayboniylar davlatining siyosiy tarixida muhim o’rin tutgan Axmad Jaloliddin Kosoniy Hazrati Maxdumi A’zam (1461-1542)ning farzandi bo’lib, ul zot xirotlik bo’lmaganligi ma’lum bo’lgan. Xoja Do’st Do’sti Xudoning aynan o’zidir. U taxminan hijriy 900 yilda tavallud topgan va otasining vafotidan so’ng Farg’ona vodiysiga kelib, Naqshbandiya tariqatining raxnomalaridan biri bo’lib, ko’p vaqt pirlik taxtida o’tirgan. ***(Kattaev K. Ko’rsatilgan asar, 33-bet)***
25	“Boboyi Xurosoniy” qabristoni	Oltiariq tumani Gulobod MFY, T.Nizomov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:02:0034)***	Boboyi Xuroson qabristoni Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan bo’lib, xalq orasida Xuroson ota mozori ham deyiladi. Xuroson ota Do’sti Xudo hazratlarining birodari bo’lgan emish. Aytishlaricha Boboyi Xuroson mozoridan gumbirlagan ovoz kelib, olov chiqqan va bu olov Do’sti Xudo mozori tomonga uchib borib, g’oyib bo’lar ekan. SHu sababdan ularni og’a-ini deb aytishar ekan. “Nasabnomayi Muhammad Hanafiya”da keltirilishicha, Hazra Alining o’g’oi Muhammad Hanafiya (700 yilda vafot etgan) Xurosonni olib, aholisini islomga kirgizganligi uchun Xuroson ota nomini olgan.
26	“Katput” qabristoni	Oltiariq tumani Tolko’cha MFY, Kamolat ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:05:02:0020)***	Katput qabriston Oltiariq tumani Katput qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1988 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Oltiariq tumanidagi Katput va So’liqur joy nomlarini Hazrat Ali va uning Duldul oti bilan bog’lashadi. Masalan Katput so’zini “Katta put” ya’ni, “Hazrat Alining oyog’i bilan bog’liq deyishadi. Yana bir rivoyat. Rivoyatga ko’ra qishloq atrofida qadimgi zamonda butxonlar va ularda toshdan yasalgan katta butlar bo’lgan. Ularni arablar buzib tashlagan. Uzoq yillargacha ham o’sha butlar saqlangan va 2katta but” deb atalgan. Qishloqning nomi ham o’sha so’zlardan kelib chiqqan. ***(Xasanov H. Markaziy Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent : FAN, 1965, 29-bet)***

27	“Xoja Abdullox al-Ansoriy” qabristoni	Oltiariq tumani Azimobod MFY, Temir yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:02:01:0083)***	Xoja Abdullox al-Ansoriy qabristoni 1965 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Oltiariq tumani Azimobod qishlog’ida joylashgan. Xoja Abdullox al-Ansoriy Hirotdagi ba’zi ulamolar bilan kelisha olmay, Hirotni tark etib, Farg’ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelib, bir necha vaqt yashagan emin. U qaysi qishloqda bo’lsa, uning qadami tekkan yer ziyoratgohga aylantirilgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo’lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo’lgan. Uning to’liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko’handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Hozirda Xoja Abdullox al-Ansoriy nomini saqlab qolish uchun Oltiariq tumani Azimobod qishlog’idagi qabristonga berilgan. Qabriston 1953 yili faoliyatini boshlagan.
28	“Qiziltepa” qabristoni	Oltiariq tumani Qiziltepa MFY, Yoshlar ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:03:01:01:0141)***	Qiziltepa qabristoni Oltiariq tumani Qiziltepa qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1985 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Qiziltepa nomini berishdan sabab qabriston Qiziltepa qishlog’i xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
29	“Xoja Abdullox al-Ansoriy” qabristoni	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Ansoriy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:02:03:0001)***	Xoja Abdullox al-Ansoriy Hirotdagi ba’zi ulamllar bilan kelisha olmay, Hirotni tark etib, Farg’ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelib, bir necha vaqt yashagan emin. U qaysi qishloqda bo’lsa, uning qadami tekkan yer ziyoratgohga aylantirilgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo’lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo’lgan. Uning to’liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko’handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Hozirda bu nom bilan ataluvchi qabriston o’z faoliyati tugatilgan.
30	“Qizilmozor” qabristoni	Oltiariq tumani Fayziobod MFY, Tabassum ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:01:04:0051)***	Qizilmozor qabristoni Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan. Qabriston juda qadimgi qabriston bo’lib, o’z faoliyatini to’xtatgan.

31	“Toshqo’rg’on” qabristoni	Oltiariq tumani Beglar MFY, Toshqo’rg’on ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:06:0030)***	Toshqo’rg’on qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, hozirda o’z faoliyatini to’htatgan. Qabriston juda qadimgi qabriston bo’lib, Toshqo’rg’on nomi berilishi, qadimdan Toshqo’rg’on aholi punkti bo’lib, shu yerda yashovchi aholi dafn etilganligi, qishloqning oldingi nomi Toshqo’rg’on bo’lganligi uchun Toshqo’rg’on bo’lib kelgan.
32	“Bo’yi ofoq” qabristoni	Oltiariq tumani SHalola MFY, Yu.Xidirov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:01:0066)***	Qabriston faoliyati tugatilgan. Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’i SHalola MFY xududida joylashgan. Mozorda tog’ echkisining shoxlari bo’lib, bu yerga avliyo zot ko’milgan, degan taxminlar bor.
33	“Ulug’ Moji ona” qabristoni	Oltiariq tumani Katput MFY, Diyonat ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:05:01:0051)***	Ulug’ Moji ona mozori Oltiariq tumani Katput qishlog’ida joylashgan bo’lib, asl nomi Mo’’tabar Azimxon bo’lib, Hazrat Ubaydullohning qizidir. Xalq orasida Ulug’ Moji ona yoki Avliyoxon ona ham deyishadi. Ulug’ Mojining otasi Xoja Ubaydullahon va bobosi Xoja Abdullaxon o’z davrida avliyolar sultoni darajasiga erishgan ulug’ zotlar bo’lgan. Ulug’ Moji ona deb atalishiga sabab Marg’ilon atrofidagi sayyidlar xonadonining kattasi bo’lgan ayollarga nisbatan Moji yoki Ova deb murojaat qilish udum bo’lgan ekan. SHu bois Mo’’tabar Azimxon xalq orasida Ulug’ Moji ona nomi bilan mashxur bo’lgan. Qabriston faoliyati 1988 yili tugatilgan.
34	“Oq do’ppi Eshon” qabristoni	Oltiariq tumani Beruniy MFY, Ibratli ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:02:0043)***	Qabriston Oltiariq tumani Poloson qishlog’ida joylashgan. Muhrali eshon xalq orasida Oq do’ppi eshon nomi bilan mashhur bo’lgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda Naqshbandiya tariqati vakillari uzun oq ko’ylak va ishton, oq do’ppi kiyib yurganlar. Bu esa Muhrali eshonni Farg’ona vodiysida o’z davrining mashhur tariqat riplaridan bo’lganligidan dalolat beradi. 1915-1918 yillardagi notinchliklar vaqtida Muhrali eshon xonadoni o’nlab beva-bechoralarning najot maskaniga aylangan. Muhrali eshon karomatgo’y bo’lgan, ko’pgina voqea-xodisalarni oldindan aytib bergan. 1928 yilda Muhrali eshon buva olamdan o’tgan. ***(A.Egamnazarov. Siz bilgan Dukchi eshon. Toshkent : “SHarq” 1994.130 bet)***

Xalq deputatlari Oltiariq tuman Kengashining
2022 yil 9 dekabrdagi
VI-53-178-11-151-K/22-son qaroriga
2-ilova

Farg’ona viloyati Oltiariq tumanidagi qabristonlar to’g’risida

MA’LUMOT

№	Nomlanishi	Manzili	Tarixiy ilmiy asosi
1	“Zilxa” qabristoni	Oltiariq tumani Zilxa MFY, Atoiy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:03:02:0032)***	Zilxa qabristoni Oltiariq tumani Zilxa qishlog’ida joylashgan. Zilxa nomini berishdan sabab qabriston Zilxa qishlog’ida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritilgan. 2019 yil may oyida faoliyati to’xtatilgan.
2	“Juma ota” qabristoni	Oltiariq tumani Tegirmonboshi MFY, Atoiy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:03:02:0033)***	2019 yil aprel oyida Oltiariq tumani Tegirmonboshi MFY xududidagi qir adirlikdan 5-gektar yer maydoni ajratilib, “Juma ota” qabristoni tashkil etilgan. Xududda yashovchi tadbirkor T.Topiev va uning otasi Jumavoy ota Oltiariq tumani va o’z qishlog’iga qilgan mehnatlari uchun marhum Juma otaning nomini abadiylashtirish maqsadida qabriston nomini “Juma ota” deb nom qo’yilgan.
3	“Oq ota mozori” qabristoni	Oltiariq tumani Ustoz MFY, Tabassum ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:01:04:0081)***	Oq ota mozori Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan bo’lib, ushbu mozorda ikkita ziyoratgoh mavjud. Bular Hazrati Bobo Qambar va Bobo Ahtam mozorlaridir. Oq ota mozoridagi ikkinchi ziyorathog Bobo Ahtam mozoridir. Ushbu ziyoratgohni ikkinchi nomi Oq ota mozoridir. Ushbu mozor o’zida masjid va mozorni mujassam qilib, gumbazli shaklda qurilgan. Bu mozorni sahoba Bobo Ahtamning qadamjoyi degan taxminlar ham bor. Mozor 1965-1968 yillarda qayta ta’mirlangan. “Miri Ahtam qissasi”da Bobo Ahtam Hazrati Muhammad alayhissalomning qarindoshi sahobalaridan biri ekanligi aytilgan. ***(1-Amiri Ahtam qissasi. Ibrohim Adham qissasi. Toshkent: yozuvchi, 1991, 96-bet. 2-Bo’riev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent :O’zbekiston, 1997, 151-bet)***

4	“Oqbo’yra” qabristoni	Oltiariq tumani Oqbo’yra MFY, Oqbo’yra ko’chasi, ***(kadastr raqami : 15:07:05:04:02:0079)***	Oqbo’yra qabristoni Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1824 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. SHu o’rinda qishloq nomi haqida. Tadqiqotchilar “Oq bo’yra” nomidagi bo’yra so’zini buvra, bug’ra, bura, “tuya, oq tuya” so’zi bilan bog’laydilar. Bu haqda H.Xasanov: “Oq bo’yra” deb yanglish yoziladi. Aslida buvra-tuya so’ziga bog’liq, tuyalik joy ma’nosida. Oq va qora tuya kamchil bo’lganidan uni muqaddaslashtirib qo’yilgan” degan fikrni keltirgan. ***(1-Xasanov H. Ko’rsatilgan asar, 49-bet. 2-Do’simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug’ati. Toshkent : O’qituvchi, 1977, 115-bet)***
5	“Qaxramon” qabristoni	Oltiariq tumani Qaxramon MFY, Oqbo’yra ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:04:01:0017)***	Qaxramon qabristoni Oltiariq tumani Oqbo’yra qishlog’ida joylashgan bo’lib, 2008 yili tuman hokimining tegishli qaroriga asosan yer maydoni ajratilib, shu yildan boshlab o’z faoliyatini boshlagan. Qaxramon nomini berishdan sabab qabriston Qaxramon mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
6	“Povulg’on” qabristoni	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Toshobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:02:03:0050)***	Povulg’on qabriston Oltiariq tumani Povulg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1953 yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Qishloqning nomi “Pok bo’lg’on” deb atalib, keyinchalik Povulg’on deb yuritilgan deyishadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra Povulg’on so’zi asli mo’g’il tiliga xos paulgan “qo’nish joyi, o’rda, manzil so’zi asosida vujudga kelgan. ***(Oxunov N. Joy nomlari ta’biri. Toshkent: O’zbekiston. 1994. 711-bet.)***
7	“Umarali qori ota” qabristoni	Oltiariq tumani Qapchug’ay MFY, Porloq ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:02:0035)***	Umarali qori ota qabristoni Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan. Qabriston 1974 yilda faoliyat yuritishni boshlagan. Qabristonga “Umarali qori ota” nomi berilishiga sabab Oltiariq tumani Poloson qishlog’ida yashovchi To’raqulov Imarali ismli shaxs xalqqa islomiy ilmlarni berib kelgan. Umarali qori ota xalq orasida Oq do’ppi eshon nomi bilan mashhur bo’lgan Muhrali eshonning muridlaridan biri bo’lgan. Umarali qori ota 1990 yilda vafot etgan. Hozirgi kunda qabriston faoliyat yurgazib kelmoqda. Poloson, Qapchug’ay va Tinchlik qishloqlarida vafot etgan kishilar dafn etiladi.
8	“O’rinboy ota” qabristoni	Oltiariq tumani SHarq MFY, Qapchug’ay ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:03:0200)***	“O’rinboy ota” qabriston Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan bo’lib, “Lo’li” millatiga mansub fuqarolar qabristoni hisoblanadi. Qapchug’ay qishlog’ining yuqori qismida joylashgan. “O’rinboy ota” nomi berilishiga sabab lo’li millatiga mansub fuqarolarning yo’l boshchisi, oqsoqoli bo’lib, O’rinboy ota o’z davrining qasidashunosi, xunarmandchilik sohasini ustasi bo’lgan. SHu yerda yashab o’tgan va shu qabristonga birinchilardan bo’lib dafn etilgan. O’rinboy ota taxminan 1954 yili vafot etgan.

9	“Rusiyzabonlar” qabristoni	Oltiariq tumani SHarq MFY, Polosonobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:01:0080)***	Rusiyzabonlar qabristoni Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1969 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. 1906 yilda Oltiariq neftni qayta ishlash zavodi qurilganidan so’ng Rossiya va boshqa davlatlardan rus, tatar, koreys millatiga mansub ishchilar ishlash uchun zavodga olib kelingan. Ular ishlari uchun sharoitlar yaratilib, doimiy yashashga uylar qurib berilgan. Vafot etganlarni shu qabristonga dafn qilishgan.
10	“SHahidlar” qabristoni **(Laxachi)**	Oltiariq tumani SHarq MFY, Obodturmush ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:03:0201)***	SHahid mozori Oltiariq tumani Qapchug’ay qishlog’idagi Laxachi qabristonida joylashgan. 1960 yildan faoliyat yurgazib kelmoqda. Odamlarning aytishicha, qurbonboy Xalfa buva ismli zot Qashg’arga ketayotganida kechasi tushiga azizlardan biri kirib “Siz Laxachida tug’ ko’tarmog’ingiz lozim” debdi. Xalfa bkva ertasi kuniyoq bbu yerda tug’ ko’tarib, keyinchalik shu yerda yashab qolibdi. Ko’p o’tmay Xalfa buvaning uyiga kechasi yetti kishidan iborat o’g’rilar bostirib kirishib, uyda bo’lgan barchasini xatto beshikda bo’lgan go’dakni ham o’ldirib ketishibdi. SHu tariqa avliyo Xalfa buva xonadonidan olti jon o’sha kuni qotillar qo’lida shahid bo’lgan ekan.
11	“Matqosim qori” qabristoni	Oltiariq tumani Oq oltin MFY, Oltiariq ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:01:02:0044)***	Matqosim qori qabristoni Oltiariq tumani Oltiariq qishlog’ida joylashgan. Matqosim qorining asl ismi Fayzimatov Muhammad Qosim bo’lib, islom dinidan ta’lim bergan. Islom mavqeida shayx, qori darajasini olgan. Mahalliy aholi Matqosim qori deyishgan. Matqosim qori vafot etganidan so’ng shu qabristonga dafn etilgan va aholining taklifi asosida qabriston nomini “Matqosim qori” deb qo’yishgan. Qabriston 1986 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda.
12	“Zokir ota” qabristoni	Oltiariq tumani Yuksalish MFY, Yuksalish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:05:0024)***	Zokir ota qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan. Taxminan 1880 yillarda faoliyat boshlagan. Mahalliy aholi vakillarining aytishicha, shu qishloqning eng boy kishisi bo’lib, uning farzandlari bo’lmaganligi uchun ham merosxo’rlari yo’q bo’lgan. Zokir ota o’ziga tegishli bo’lgan yerlaridan birini ko’rsatib, “Agar vafot etsa shu joyga dafn qilishlarini aytib, qolgan yer maydonini qabriston qilishlarini” vasiyat qilgan ekan. Zokir ota vafot etganidan so’ng vasiyati bo’yicha aytilgan joyga dafn qilishgan. Qolgan yer maydoni hozirgi kunga qadarli qabriston sifatida foydalanilib kelinmoqda.
13	“Abduholiq ota” qabristoni	Oltiariq tumani Navbaxor MFY, ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:05:0017)***	Abduholiq ota qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1962 yildan buyon faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Abduholiq ota deb nom qo’yilishiga birinchi bo’lib qabristonga shu kishi dafn etilganligi, Abduholiq ota qishloq uchun juda ko’p ishlar qilganligi, qishloqni obodonlashtirish ishlariga o’z xissasini qo’shganligi sabab bo’lgan.

14	“Oxunbuvo” qabristoni **(Oxund Dada)**	Oltiariq tumani Mustaqillik MFY, Oxunbuvo ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:07:04:0073)***	Oxund Dada mozori Oltiariq tumani Jo’rak qishlog’ida joylashgan. Oxund Dada aziz-avliyolardan bo’lib, taxminan XVIII asrda yashab o’tgan. Uning avliyoligidan bir dalil, shuki o’limidan oldin Hazrati Oxund o’z shogirdlariga “Men olamdan o’tsam, meni qishloq chetidagi qirga dafn etinglar” debdi. SHunda shogirdlari: “Biz sizni qirga dafn etsak qabringiz chetga chiqib ketgan bo’ladi”, deb hayron bo’libdilar. SHunda Hazrati Oxund: “Hozir chekkada bo’lsak ham vaqti kelib qishloqning o’rtasida bo’lamiz” deb javob bergan ekan. CHindan ham hozirgi vaqtda Hazrat Oxund Dada mozori qishloqning o’rtasida joylashgan. Mozor oldida 1780 yilda Niyozqul Imom Homid Oxund tomonidan qurilgan masjid ham bo’lib, ushbu masjid keyinchalik buzib tashlangan. Hozirda Oxund Dada nomi shu yerda yashovchi aholi tomonidan Oxun buvo deb ham atalib kelinadi.
15	“Jahongirxon” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Do’stiobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0075)***	Jahongir eshon qabristoni Oltiariq tumani Eski Arab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1870 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Ushbu mozorda Jahongir eshon va uning otasi Amirshoh eshon dafn etilgan. Jahongir eshon bundan uch asr muqaddam yashab o’tgan. Jahongir eshon balog’atga yoshiga yetgach, tariqat yo’lini tanlab, Samarqand boradi va Hazrati Jahongir Samarqanda bir necha vaqt turgach, piri komildan irshodni olib, Oltiariqqa qaytib kelib, umrini oxirigacha eshonlik maqomida turib, tariqatdan dars berib, avliyolik darajasiga erishgan. ***(Naqshbandiya tariqatiga oid qo’l yozmalar fihristi. Toshkent: Movarounnahr, 1993, 118-bet)***
16	“Yuqori mahalla” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0074)***	Yuqori mahalla qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, o’z faoliyatini 1999 yilda boshlagan. Qabriston tashkil etish bo’yicha tuman hokimining tegishgli qarori qabul qilingan. Yuqori mahalla qabristoniga bunday nom berilishiga sabab asosan qishloqning yuqorida qismida yashovchi fuqarolar dafn etilganligi munosabati bilan “Yuqori mahalla” nomi berilgan. Qabriston o’z faoliyatini yurgazib kelmoqda.
17	“Qo’rg’oncha” qabristoni	Oltiariq tumani Qo’rg’oncha MFY, Adolat yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:05:0052)***	Qo’rg’oncha qabristoni Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Qo’rg’oncha nomini berishdan sabab qabriston Qo’rg’oncha mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.

18	“Valixonto’ra” qabristoni	Oltiariq tumani Istiqlol MFY, Tiklanish ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:04:0076)***	Valixonto’ra qabristoni 1950 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Valixonto’ra Sayyid Abdullaxon xojaning Rahmatullohxon xoja ismli o’g’li avlodidan bo’lib, 1864-1950 yillarda yashab o’tgan. Oltiariq tumanining Eskiarab qishlog’iga dafn etilgan. Hozirda saqlanayotgan shajarada, jumladan, shunday deyiladi: “Uch birodarlari Xoja Karomatullohdurlar. Alarning farzandlari Muhammad Odil Podshohdurlar, Sayyid Ofoqxojamga domod bo’ladurlar. Bularning farzandi arjumandlari Eshon Sayyid Abdulloh xojam qutb ul aqtob Sayyid avliyodurlar. Alarning farzandi arjumandlari Muhammad Sayyidxon xojam. Bu shajarai sharif Muhammad Sayyid Xojamni shajaralaridur” deyilgan. Valixonto’ra vafot etgach, halq uni shu qishloqqa dafn etishlarini farzandlaridan iltimos qilganlar.
19	“Muxammad Yusuf Eshon” qabristoni **(Mamayusuf Eshon)**	Oltiariq tumani Jarqo’rg’on MFY, ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:06:0073)***	Qabriston 1822 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Farg’ona-Qo’qon yo’lida joylashgan bo’lib, Mamayusuf Hazrati Oxundning otasidir. Aytishlaricha, Mamayusuf eshon hazratlari vafotidan oldin: “Men dunyodan o’tsam adirga dafn etinglar” deb vasiyat qilgan ekan. SHogirdlari bu vasiyatini eshitib hayron bo’lishib turgan payt Mamayusuf eshon hazratlari: “Vaqti kelib men yotgan joydan sal narida katta yo’l o’tadi. Odamlar qabrimni ko’rib, doim duo qilib o’tadilar”, deb bashorat qilgan ekan. CHindan ham hozirda Mamayusuf eshon hazratlari mozori oldidan katta yo’l o’tgan bo’lib, yo’lovchilar duo qilib o’tadilar.
20	“Sarimsoq xo’ja avliyo” qabristoni	Oltiariq tumani Qo’rg’oncha MFY, Adolat yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:03:05:0112)***	“Sarimsoq xo’ja avliyo” qabriston (Xonaqoh aziz buva mozori). Oltiariq tumani Eskiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, kelib chiqish tarixi 17 asrdan boshlanadi. Hozirda mahalliy aholi tomonidan Xonaqoh aziz buva mozori, Sarimsoq xo’ja avliyo nomi bilan yuritilib kelinmoqda. Aytishlaricha, kunlardan bir kuni dalada dehqonchilik bilan mashg’ul bo’lgan dexqonlar oldiga bir mo’ysafid chol kelib: “SHu yerga bir xonaqox ko’tarsangizlar soz bo’lar edi” deb, bu ishning uddasidan kim chiqa olishini so’rabdi. Dehqonlar bu ishni faqat Avliyo buva qilishi mumkinligini aytishibdi va mo’ysafidning oldiga Avliyo buvani olib kelishibdi. Haligi mo’ysafid chol Avliyo buvaga “Siz bu yerga xonaqoh qurdiring. Keyinchalik shu yerga sizni dafn qilishadi. Siz shu joyning tarbiyat qiluvchi valiylaridan bo’lasiz”, deb duo qilib, ko’zdan g’oyib bo’libdi. Barcha bu Hazrati Xizr ekanligini bilishibdi. SHundan keyin Avliyo buva xonaqoh quribdi va shu yerga dafn qilishibdi.
21	“CHordara” qabristoni	Oltiariq tumani CHordara MFY, Yangiobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:04:01:0022)***	CHordara qabristoni Oltiariq tumani Yangiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. CHordara nomini berishdan sabab qabriston CHordara mahalla fuqarolar yig’ini xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi. CHordara “To’rt tomoni dara” degan ma’noni anglatadi.

22	“Yangiarab” qabristoni	Oltiariq tumani Bunyodkor MFY, Ipakchi ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:04:02:0069)***	Yangiarab qabristoni Oltiariq tumani Yangiarab qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1947 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Yangiarab nomini berishdan sabab qabriston Yangiarab qishlog’i xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
23	“Qoziyon” qabristoni	Oltiariq tumani SHalola MFY, Yu.Xidirov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:01:0078)***	Qoziyon qabristoni Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan. Qabriston 1970-1975 yillarda faoliyat boshlagan. Qoziyon deb atalishiga sabab, qozilik qiladigan odamlar ko’p bo’lgan. “Yon”-so’zi tojikchada “lar” degan ma’nosi anglatgani uchun “Qozilar” deb atalgan bo’lishi mumkin. Hozirda qabriston faoliyatini yurgazib kelmoqda.
24	“Do’sti Xudo Pirim” qabristoni	Oltiariq tumani Zilol MFY, Paxtaobod ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:03:0039)***	Do’sti Xudo mozori Oltiariq tumanining Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan. Do’sti Xudo hazratlarining asl ismi Atoulloh bo’lib, Maschoh yurtidan bo’lgan. Do’sti Xudo Temuriylar va undan keyingi davrlarda Farg’ona vodiysining shimoliy xududidagi Kosonshahrida tug’ilib, keyinchalik XV asrning oxiri XVI asrning birinchi yarmida Temuriylar va SHayboniylar davlatining siyosiy tarixida muhim o’rin tutgan Axmad Jaloliddin Kosoniy Hazrati Maxdumi A’zam (1461-1542)ning farzandi bo’lib, ul zot xirotlik bo’lmaganligi ma’lum bo’lgan. Xoja Do’st Do’sti Xudoning aynan o’zidir. U taxminan hijriy 900 yilda tavallud topgan va otasining vafotidan so’ng Farg’ona vodiysiga kelib, Naqshbandiya tariqatining raxnomalaridan biri bo’lib, ko’p vaqt pirlik taxtida o’tirgan. ***(Kattaev K. Ko’rsatilgan asar, 33-bet)***
25	“Boboyi Xurosoniy” qabristoni	Oltiariq tumani Gulobod MFY, T.Nizomov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:02:0034)***	Boboyi Xuroson qabristoni Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’ida joylashgan bo’lib, xalq orasida Xuroson ota mozori ham deyiladi. Xuroson ota Do’sti Xudo hazratlarining birodari bo’lgan emish. Aytishlaricha Boboyi Xuroson mozoridan gumbirlagan ovoz kelib, olov chiqqan va bu olov Do’sti Xudo mozori tomonga uchib borib, g’oyib bo’lar ekan. SHu sababdan ularni og’a-ini deb aytishar ekan. “Nasabnomayi Muhammad Hanafiya”da keltirilishicha, Hazra Alining o’g’oi Muhammad Hanafiya (700 yilda vafot etgan) Xurosonni olib, aholisini islomga kirgizganligi uchun Xuroson ota nomini olgan.
26	“Katput” qabristoni	Oltiariq tumani Tolko’cha MFY, Kamolat ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:05:02:0020)***	Katput qabriston Oltiariq tumani Katput qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1988 yildan buyon faoliyat yurgazib kelmoqda. Oltiariq tumanidagi Katput va So’liqur joy nomlarini Hazrat Ali va uning Duldul oti bilan bog’lashadi. Masalan Katput so’zini “Katta put” ya’ni, “Hazrat Alining oyog’i bilan bog’liq deyishadi. Yana bir rivoyat. Rivoyatga ko’ra qishloq atrofida qadimgi zamonda butxonlar va ularda toshdan yasalgan katta butlar bo’lgan. Ularni arablar buzib tashlagan. Uzoq yillargacha ham o’sha butlar saqlangan va 2katta but” deb atalgan. Qishloqning nomi ham o’sha so’zlardan kelib chiqqan. ***(Xasanov H. Markaziy Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent : FAN, 1965, 29-bet)***

27	“Xoja Abdullox al-Ansoriy” qabristoni	Oltiariq tumani Azimobod MFY, Temir yo’li ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:02:01:0083)***	Xoja Abdullox al-Ansoriy qabristoni 1965 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Oltiariq tumani Azimobod qishlog’ida joylashgan. Xoja Abdullox al-Ansoriy Hirotdagi ba’zi ulamolar bilan kelisha olmay, Hirotni tark etib, Farg’ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelib, bir necha vaqt yashagan emin. U qaysi qishloqda bo’lsa, uning qadami tekkan yer ziyoratgohga aylantirilgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo’lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo’lgan. Uning to’liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko’handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Hozirda Xoja Abdullox al-Ansoriy nomini saqlab qolish uchun Oltiariq tumani Azimobod qishlog’idagi qabristonga berilgan. Qabriston 1953 yili faoliyatini boshlagan.
28	“Qiziltepa” qabristoni	Oltiariq tumani Qiziltepa MFY, Yoshlar ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:03:01:01:0141)***	Qiziltepa qabristoni Oltiariq tumani Qiziltepa qishlog’ida joylashgan bo’lib, 1985 yildan buyon faoliyat yurgazib keladi. Qiziltepa nomini berishdan sabab qabriston Qiziltepa qishlog’i xududida joylashganligi va asosan shu xududda yashovchi fuqarolar dafn etilganligi bois shu nom bilan yuritiladi.
29	“Xoja Abdullox al-Ansoriy” qabristoni	Oltiariq tumani Toshobod MFY, Ansoriy ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:02:03:0001)***	Xoja Abdullox al-Ansoriy Hirotdagi ba’zi ulamllar bilan kelisha olmay, Hirotni tark etib, Farg’ona vodiysiga bundan ming yil muqaddam kelib, bir necha vaqt yashagan emin. U qaysi qishloqda bo’lsa, uning qadami tekkan yer ziyoratgohga aylantirilgan ekan. Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns” kitobida keltirilishicha, Abdulloh Ansoriy zamonasining mashhur shayxlaridan bo’lib, she’riyat bobida ham zamonasining mashhur shoiri bo’lgan. Uning to’liq ismi Abu Ismoil Abdulloh ibn Abu Mansur Muhammad al-Ansoriy al-Hiraviydir. Abdulloh Ansoriy 1006 yili Ko’handiz shahrida tavallud topib, umrining oxirigacha Hirot shahrida darveshona umr kechirgan. U 1075 yilda vafot etgach, Hirotning Gazurgoh mavzesida dafn etilgan. Hozirda bu nom bilan ataluvchi qabriston o’z faoliyati tugatilgan.
30	“Qizilmozor” qabristoni	Oltiariq tumani Fayziobod MFY, Tabassum ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:05:01:04:0051)***	Qizilmozor qabristoni Oltiariq tumani Fayziobod qishlog’ida joylashgan. Qabriston juda qadimgi qabriston bo’lib, o’z faoliyatini to’xtatgan.

31	“Toshqo’rg’on” qabristoni	Oltiariq tumani Beglar MFY, Toshqo’rg’on ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:01:06:0030)***	Toshqo’rg’on qabristoni Oltiariq tumani Yangiqo’rg’on qishlog’ida joylashgan bo’lib, hozirda o’z faoliyatini to’htatgan. Qabriston juda qadimgi qabriston bo’lib, Toshqo’rg’on nomi berilishi, qadimdan Toshqo’rg’on aholi punkti bo’lib, shu yerda yashovchi aholi dafn etilganligi, qishloqning oldingi nomi Toshqo’rg’on bo’lganligi uchun Toshqo’rg’on bo’lib kelgan.
32	“Bo’yi ofoq” qabristoni	Oltiariq tumani SHalola MFY, Yu.Xidirov ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:06:01:0066)***	Qabriston faoliyati tugatilgan. Oltiariq tumani Bo’rbonliq qishlog’i SHalola MFY xududida joylashgan. Mozorda tog’ echkisining shoxlari bo’lib, bu yerga avliyo zot ko’milgan, degan taxminlar bor.
33	“Ulug’ Moji ona” qabristoni	Oltiariq tumani Katput MFY, Diyonat ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:04:05:01:0051)***	Ulug’ Moji ona mozori Oltiariq tumani Katput qishlog’ida joylashgan bo’lib, asl nomi Mo’’tabar Azimxon bo’lib, Hazrat Ubaydullohning qizidir. Xalq orasida Ulug’ Moji ona yoki Avliyoxon ona ham deyishadi. Ulug’ Mojining otasi Xoja Ubaydullahon va bobosi Xoja Abdullaxon o’z davrida avliyolar sultoni darajasiga erishgan ulug’ zotlar bo’lgan. Ulug’ Moji ona deb atalishiga sabab Marg’ilon atrofidagi sayyidlar xonadonining kattasi bo’lgan ayollarga nisbatan Moji yoki Ova deb murojaat qilish udum bo’lgan ekan. SHu bois Mo’’tabar Azimxon xalq orasida Ulug’ Moji ona nomi bilan mashxur bo’lgan. Qabriston faoliyati 1988 yili tugatilgan.
34	“Oq do’ppi Eshon” qabristoni	Oltiariq tumani Beruniy MFY, Ibratli ko’chasi ***(kadastr raqami : 15:07:06:02:02:0043)***	Qabriston Oltiariq tumani Poloson qishlog’ida joylashgan. Muhrali eshon xalq orasida Oq do’ppi eshon nomi bilan mashhur bo’lgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda Naqshbandiya tariqati vakillari uzun oq ko’ylak va ishton, oq do’ppi kiyib yurganlar. Bu esa Muhrali eshonni Farg’ona vodiysida o’z davrining mashhur tariqat riplaridan bo’lganligidan dalolat beradi. 1915-1918 yillardagi notinchliklar vaqtida Muhrali eshon xonadoni o’nlab beva-bechoralarning najot maskaniga aylangan. Muhrali eshon karomatgo’y bo’lgan, ko’pgina voqea-xodisalarni oldindan aytib bergan. 1928 yilda Muhrali eshon buva olamdan o’tgan. ***(A.Egamnazarov. Siz bilgan Dukchi eshon. Toshkent : “SHarq” 1994.130 bet)***